



Dilnoza IBRAGIMOVA,
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

PhD D.Niyazmetova taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI LINGVISTIK TERMINLARNING FONETIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK JIHATDAN TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlarni fonetik, morfologik va semantik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari terminlarning shakllanish mexanizmlari, fonetik tuzilmalari va ma'no yuki jihatidan sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Maqola lingvistik tafakkurning milliy-madaniy asoslanganligini hamda terminologik tafovutlarning tarjima va o'qitish jarayonidagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Termin, fonetika, morfologiya, semantika, qiyosiy tahlil, lingvistik tafakkur.

PHONETIC, MORPHOLOGICAL, AND SEMANTIC ANALYSIS OF LINGUISTIC TERMS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation

This article analyzes linguistic terms in Uzbek and English from phonetic, morphological, and semantic perspectives. The research findings reveal significant differences in the formation mechanisms, phonetic structures, and semantic loads of terms in the two languages. The article also emphasizes the national and cultural grounding of linguistic thinking and the importance of terminological distinctions in translation and language teaching.

Key words: Terminology, phonetics, morphology, semantics, comparative analysis, linguistic thinking.

ФОНЕТИЧЕСКИЙ, MORFOЛОГИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проводится анализ лингвистических терминов узбекского и английского языков с фонетической, морфологической и семантической точек зрения. Результаты исследования показывают наличие существенных различий в механизмах формирования, фонетической структуре и смысловой нагрузке терминов. В статье также подчеркивается национально-культурная обусловленность лингвистического мышления и значимость терминологических различий в процессе перевода и преподавания.

Ключевые слова: Терминология, фонетика, морфология, семантика, сравнительный анализ, лингвистическое мышление.

Kirish. Tilshunoslik sohasida ishlatiladigan terminlar har bir tilning ilmiy tafakkuri, madaniyati va tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek va ingliz tillari — turkiy va german tillar oilasiga mansub bo'lgan ikki turli til sifatida — lingvistik terminlarning shakllanishi, tuzilishi va ma'nosida keskin tafovutlarni namoyon etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — o'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlarni fonetik, morfologik va semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat.

Ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik terminlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'rganilishi tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Bu sohadagi tadqiqotlar til o'rganish, tarjima, terminologiya va madaniy tafovutlarni anglashda katta ahamiyatga ega.

Tilning fonetik jihati so'z va iboralarning tovush tarkibi va talaffuzini o'rganadi. Ingliz va o'zbek tillarida fonetik tizimlarning sezilarli farqlari mavjud: ingliz tilida tovushlar tizimi murakkabroq bo'lib, tovushlarning talaffuzi va urg'u tizimi boydir, o'zbek tilida tovushlar tizimi nisbatan soddaroq va urg'u asosan so'z oxiriga tushadi. Bu fonetik farqlar lingvistik terminlarning talaffuzida ham aks etadi va ularning tushunilishini murakkablashtirishi mumkin.

Morfologik jihatdan, ingliz tilidagi lingvistik terminlar ko'pincha lotin va yunon tillaridan olingan bo'lib, ular turli

qo'shimchalar orqali yasaladi. O'zbek tilida terminlar asosan so'z yasovchi va shakllantiruvchi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Masalan, "phonology" va "fonologiya" terminlari bir xil ma'noni anglatgan bo'lsa-da, ularning morfologik tuzilishi va yozilishi farq qiladi.

Semantik jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik terminlarning ma'nosi va qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida bitta termin turli kontekstlarda turli ma'nolarni anglatishi mumkin. O'zbek tilida

Uslubiy yondashuv. Ushbu tadqiqotda lingvistik terminlar quyidagi uchta asosiy mezon bo'yicha tahlil qilindi:

Fonetik jihat: Terminlarning tovush tarkibi, urg'u va fonema tuzilishi o'rganildi. Bu orqali so'zlarning talaffuzi va tovush tizimidagi xususiyatlari aniqlandi.

Morfologik jihat: Terminlarning shakllanishi, ya'ni ularning qo'shimchalanishi, birikma so'zlar shakllanishi va so'z yasalishi ko'rib chiqildi.

Semantik jihat: Terminlarning asosiy ma'nosi, ularning ma'nosi kontekstga bog'liq holda qanday o'zgarishi va metaforik tarzda qo'llanilishi tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun terminlar Oxford Linguistics Dictionary, O'zbek tilining izohli lug'atlaridan tanlab olindi.

O. Ahmedov lingvistik terminlar va terminologiyani nazariy asoslarini tahlil qilgan. U terminlarning aniqligi, tizimliliigi va tarjima jarayonidagi muhimligini ta'kidlab,

ularni lingvistik tadqiqotlarda to'g'ri qo'llash zarurligini bildirgan. Azim Hojiyev o'zbek tilidagi lingvistik terminlarning shakllanishi va ularning morfologik tuzilishini chuqur o'rgangan. U, ayniqsa, so'z yasaliishi va qo'shimchalanish jarayonlariga e'tibor qaratib, terminlarning morfologik xususiyatlarini tahlil qilgan. R. Jakobson fonologiyani mustaqil til tizimi sifatida ko'rib, fonemalarning chuqur shakldan yuzaki shaklga o'tishini qoidalar orqali tushuntirgan.

Fonetik tahlil. O'zbek tilidagi lingvistik terminlar ko'pincha sodda fonetik tuzilishga ega bo'lib, tovushlar orasida o'ziga xos uyg'unlik va ohangdorlik mavjud. Masalan, "bo'g'in", "talaffuz", "so'z", "harf" kabi terminlar o'zbek tilining tovush tizimiga mos keladi va talaffuzda tabiiyligni ta'minlaydi. O'zbek tilida tovushlar ko'pincha yumshoq va ochiq bo'lib, so'zlarning talaffuzi doimo fonetik qoidalarga qat'iy amal qiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'u odatda so'nggi yoki oldingi bo'g'inlarga tushadi.

Ingliz tilidagi lingvistik terminlarga qaraganda, o'zbek tilidagi terminlar ancha sodda va aniq tovush tizimiga ega. Ingliz tilidagi terminlar esa ko'pincha yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ularning fonetik tuzilishi murakkabroq va undoshlarning kombinatsiyalari ko'p uchraydi. Masalan, "phonology" (fonologiya), "morphology" (morfologiya), "syntax" (sintaksis) kabi so'zlar tarkibida bir nechta undoshlar ketma-ket kelishi mumkin: phon-ology, morph-ology, syn-tax. Bu kombinatsiyalar ingliz tilining talaffuzini murakkablashtiradi va o'rganuvchilar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Ingliz tilidagi urg'u tartibi ham o'zbek tilidan tubdan farq qiladi. Ingliz tilida urg'u ko'pincha so'z ildiziga yoki muhim ma'no bo'g'iniga tushadi. Masalan:

phónetics – urg'u birinchi bo'g'inga (phon) tushadi,
morphólogy – urg'u ikkinchi bo'g'inga (mol) tushadi,
syntax – urg'u birinchi bo'g'inda (syn) tushadi,
phonémics – urg'u birinchi bo'g'inda (phon) tushadi.
linguistics – urg'u ikkinchi bo'g'inga (guís) tushadi,
semántics – urg'u ikkinchi bo'g'inga (mán) tushadi.

O'zbek tilidagi urg'u esa so'z oxiridagi yoki boshidagi bo'g'inlarga ko'proq bog'liq bo'lib, odatda uning joylashuvi aniq va o'zgarmasdir.

Shu sababli, fonetik tahlil orqali ko'rish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlar tovush tizimi va urg'u qoidalari jihatidan ancha farqlanadi. Bu farqlar tarjima va til o'rganishda ham e'tiborga olinishi lozim.

Morfologik tahlil. Ingliz tilida so'z yasash jarayoni murakkabroq bo'lib, u ko'proq prefiksalar (old qo'shimchalar) va suffiksalar (orqa qo'shimchalar) yordamida amalga oshiriladi. Masalan, "linguistics" (linguistics) so'zi ildiz "lingua-" (til) va suffiks "-istics" (fan, soha) birikmasidan tashkil topgan. Shu tarzda, yangi terminlar "psycholinguistics" (psychology + linguistics), "metalinguistics" (meta + linguistics) kabi murakkab so'zlar sifatida hosil qilinadi. Ingliz tilida qo'shimchalar shakli ko'pincha qat'iy va o'zgarmas bo'lib, ular o'zining grammatik va leksik funksiyasini doimo saqlab qoladi. Masalan, "-ology" (fan) yoki "-ist" (mutaxassis) kabi qo'shimchalar terminlarning mazmunini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ingliz tilida ko'plab terminlar yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, bu tillardagi qo'shimchalar shaklini aynan saqlab qoladi. Misol uchun: "biology" (bio + logy) — hayot fani, "sociolinguistics" (socio + linguistics) — ijtimoiy lingvistika, "phonetics" (phone + tics) — tovushshunoslik yoki fonetika. O'zbek tilida so'z yasash ko'proq so'z birikmalari va qo'shimchalar orqali amalga oshsa, ingliz tilida so'zning ildiz qismi va prefiks-suffikslarning o'zaro birikishi yangi lingvistik terminlarni hosil qiladi. Demak, morfologik tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida terminlar agglutinatuv usulda, ya'ni ketma-ket

qo'shimchalar orqali, kontekstga moslashgan holda shakllansa, ingliz tilida terminlar asosan prefiksalar va suffikslarning qat'iy kombinatsiyasi orqali hosil qilinadi. Bu farq ikki tilning morfologik tuzilishi va tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Semantik tahlil. Til birliklarining ma'nosi va ularning kontekstdagi ishlatilishi, o'zbek va ingliz tillidagi lingvistik terminlar orasidagi asosiy farqlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har ikkala tilning semantik tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar ularning terminologik lug'atida ham aks etadi. O'zbek tilida semantik xususiyatlar: O'zbek tilidagi lingvistik terminlar ko'pincha bevosita ma'no anglatib, so'zning o'zidan uning mazmuni haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Masalan:

"talaffuz" – so'z yoki tovushlarning aytilish usuli. Bu so'z talaffuz qilish (to'g'ri aytish) bilan bog'liq bo'lib, uning semantikasi aniq va tushunarli.

"so'z" – aloqa yoki axborot vositasi bo'lgan til birligi. Bu termin mazmunan ham, shaklan ham soddadir.

"harf" – yozuvning eng kichik birliklaridan biri. Uning ma'nosi va ishlatilishi o'zbek tilida aniq.

O'zbek tilidagi terminlar ko'pincha an'anaviy va bevosita ma'noga ega bo'lib, ularning semantikasi sodda va tushunarli. Buning sababi o'zbek tilining xalqona tabiatidir, ya'ni ilmiy terminlar ham ko'pincha xalq tilidan kelib chiqqan.

Ingliz tilida semantik xususiyatlar: Ingliz tilidagi lingvistik terminlar esa aksincha, ko'pincha yunon va lotin tillaridan olingan bo'lib, ularning semantikasi murakkabroq va ko'p qirrali bo'lishi mumkin. Masalan:

"phonology" – yunoncha "phone" (tovush) va "-logy" (fan) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, u tovush tizimlarini o'rganuvchi fanni anglatadi.

"syntax" – yunoncha "syntaxis" (tartib) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'zlarning gap ichidagi tartibini o'rganadi.

"semantics" – yunoncha "semantikos" (ma'no anglatish) so'zidan olingan bo'lib, u so'zlar va iboralar ma'nosini tadqiq qiladi.

Ingliz tilidagi terminlarning semantikasi ko'pincha murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular turli ilmiy kontekstlarda turlicha tushunilishi mumkin. Masalan, "syntax" odatda grammatikani anglatadi, biroq dasturlash tilida u kodlar tartibini ifodalaydi. Shuningdek, "morphology" lingvistikada so'zlarning shakllanishini o'rgansa, biologiyada tirik organizmlarning tuzilishini o'rganadi.

Metaforik va kontekstual ma'no: Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida terminlar ko'pincha metaforik ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan:

"tree" (daraxt) – lingvistikada so'zlarning kelib chiqishini ko'rsatuvchi diagrammani anglatadi.

"root" (ildiz) – so'zning asosiy qismini anglatadi, biroq bu so'zning dastlabki ma'nosi o'simlik ildizi edi.

"branch" (shox) – ilmiy sohada biror sohaning yo'nalishini anglatadi (masalan, "branch of linguistics").

O'zbek tilida bunday metaforik ma'no kamroq uchraydi. Asosan, so'zlar o'zining asosiy va aniq ma'nosini saqlab qoladi. Masalan, "talaffuz" so'zi har doim tovushlarni aytish jarayonini anglatadi, boshqa kontekstlarda boshqa ma'nolarni bildirmaydi.

Umuman olganda, o'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlarning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida terminlar sodda, aniq va bevosita ma'no ifodalaydi, ingliz tilida esa ko'pincha murakkab, metaforik va ko'p qirrali semantik xususiyatlarga ega.

Muhokama. Ushbu tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari o'rganildi. O'zbek tilida terminlar asosan xalq tiliga yaqin, semantik jihatdan shaffof va

aglutinativ xususiyatga ega bo'lib, ularning shakllanishi va tushunilishi oddiy va ravshan. Bu milliy ilmiy tafakkurning o'ziga xosligini aks ettiradi. Masalan, "tilshunoslik" (til + shunos + lik) so'zi bevosita ma'noni ifodalaydi va murakkab ko'rinishga ega emas. Ingliz tilidagi lingvistik terminlar esa xalqaro xususiyatga ega bo'lib, yunon va lotin tillaridan olingan so'zlar orqali shakllangan. Bunday terminlar ko'pincha metaforik ma'no kasb etadi va turli ilmiy kontekstlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, "syntax" (sintaksis) atamasi nafaqat grammatikani, balki dasturlash tillaridagi kod tartibini ham ifodalaydi. Ushbu holat o'zbek va ingliz tillarida ilmiy atamalarni shakllantirish va tushuntirishdagi yondashuvlarning farqini ochib beradi.

Xulosa. O'zbek va ingliz tillaridagi lingvistik terminlarning fonetik, morfologik va semantik tahlili ularning ilmiy atamalar tizimidagi asosiy farqlarini yoritdi. O'zbek tilida terminlar sodda va bevosita ma'noga ega bo'lib, aglutinativ xususiyatga ega. Ingliz tilida esa terminlar murakkab, ko'p ma'noli va xalqaro kontekstdagi terminlar bilan bog'liqdir.

Bu farqlarni chuqur anglash o'qituvchilar, tarjimonlar va ilmiy tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu mavzuda yanada keng qamrovli tadqiqotlar olib borish va lingvistik terminlarni o'zaro taqqoslash orqali tarjima jarayonlarini takomillashtirish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov, O. Tilshunoslik terminologiyasining nazariy masalalari. Toshkent: Fan. 2008
2. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. London: Edward Arnold. 1978.
3. Hojiyev, A. O'zbek tilidagi lingvistik terminlarning shakllanishi va tuzilishi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006
4. Jakobson, R. Linguistics and Poetics. In: Style in Language, ed. Thomas A. Sebeok, MIT Press. 1960.
5. Oxford University Press. Oxford Dictionary of Linguistics (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press. 2020.
6. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent: O'qituvchi. 1992.
7. Trubetzkoy, N. S. Principles of Phonology. (Translated by C. A. M. Baltaxe). Berkeley: University of California Press. 1969.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. 2005.